

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА РАХБАРЛИК ВА ЛИДЕРЛІК ФАЗИЛАТЛАРИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15149987>

**Rasulova Gulnoza Nurbekovna**

*Chilonzor tumani 534-sonli DMTT direktori*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola maktabgacha ta'limda rahbarlik va liderlik fazilatlarining ahamiyati yoritilgan. Maqolada rahbarlik va liderlik tushunchalari, maktabgacha ta'lim tizimida rahbarning asosiy fazilatlari va ularning bolalar, tarbiyachilar va ota-onalar bilan samarali munosabatlар о'rnatishdagi roli tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'limda rahbarning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalari, emotsional intellekti, qarorlar qabul qilish qobiliyati va tashkiliy ko'nikmalari haqida so'z yuritilib, liderlikning pedagogik jarayonlarga ta'siri ko'rsatilgan. Shuningdek, maqolada rahbarlik va liderlik fazilatlarini rivojlantirishning muhim yo'llari va bu jarayonda amalga oshiriladigan amaliy choralar haqida ham ma'lumot berilgan.

### **Kalit so'zlar**

Maktabgacha ta'lim, rahbarlik liderlik, pedagogik jarayon, emotsional intellekt, tashkiliy ko'nikmalar.

### **Аннотация**

Данная статья освещает важность лидерских и управленческих качеств в системе дошкольного образования. В статье рассматриваются понятия лидерства и управления, основные качества руководителя в дошкольном образовании и его роль в установлении эффективных взаимоотношений с детьми, воспитателями и родителями. Особое внимание уделено социальным и коммуникативным навыкам руководителя, его эмоциональному интеллекту, способности принимать решения и организационным умениям, а также влиянию лидерства на педагогический процесс. В статье также обсуждаются ключевые способы развития лидерских и управленческих качеств и практические меры, предпринимаемые в этом процессе.

### **Ключевые слова**

Дошкольное образование, руководство, лидерство, педагогический процесс, эмоциональный интеллект, организационные навыки.

Maktabgacha ta'lim – bu bolalarning birinchi o'quv bosqichi bo'lib, u nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish uchun ham muhimdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlik va liderlik fazilatlari, ta'lim jarayonining sifatini ta'minlashda va tashkilotni muvaffaqiyatli boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Rahbarlik va liderlikning o'ziga xos jihatlari, tarbiyachilar va bolalar bilan ishslashda samarali yondoshuvlarni yaratishda yordam beradi.

Rahbarlik – bu boshqaruv jarayonida maqsadlarga erishish uchun odamlarni yo'naltirish, ularni rag'batlantirish va ularga zarur ko'nikmalarni berish jarayonidir. Maktabgacha ta'lim tizimida rahbar faqat faoliyatni nazorat qilibgina qolmay, balki pedagogik muhitda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshiradi, tarbiyachilar va bolalar o'rtasida muvaffaqiyatli munosabatlarni o'rnatadi.

Liderlik esa, boshqalarni o'z ortidan ergashtirish, ularga motivatsiya berish va ularning qobiliyatlarini rivojlantirish qobiliyatini anglatadi. Maktabgacha ta'limda liderlikning maqsadi – pedagoglarni va bolalarni motivatsiya qilish, ularning eng yaxshi tomonlarini namoyon qilishga yordam berish va maqsadlarga erishish uchun yuksak motivatsiyani yaratishdir.

Rahbar uchun samarali muloqot qilish juda muhimdir. Tarbiyachilar, bolalar va ota-onalar bilan yaxshi aloqada bo'lish, ularning ehtiyojlarini tushunish va o'z fikrlarini aniq ifodalash rahbarning asosiy fazilatlaridan biridir. Rahbarning kommunikativ ko'nikmalari pedagogik muhitda muhim o'rinni tutadi.

Rahbarning emotsional intellekti, o'z va boshqalarning hissiyotlarini tushunish va boshqarish qobiliyatidir. Bu fazilat, rahbarning bolalar bilan ishslashda hamda jamoaviy ishni boshqarishda o'zini qanday tutishini belgilaydi. Emotsional intellektli rahbarlar, o'z xodimlarini yaxshi tushunib, muammolarni samarali hal qilishadi.

Rahbarlarning qaror qabul qilish qobiliyatini ularning muvaffaqiyatini belgilaydi. Maktabgacha ta'limda har bir qaror pedagogik jarayonni va tashkilotning umumiy faoliyatini bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun rahbarlar tezkor va oqilona qarorlar qabul qilishlari kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasida samarali boshqaruvni ta'minlash uchun rahbarning tashkiliy ko'nikmalari zarur. Bular muassasa ishlarini rejorashtirish, resurslarni boshqarish va pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Liderlik sifatida rahbarning pedagogik jarayonlarga ta'siri nihoyatda katta. Yaxshi lider tarbiyachilarga yordam berish, ularga yangi yondoshuvlarni o'rgatish va bolalar bilan samarali ishslash uchun kerakli sharoitlarni yaratadi. Liderlikning asosiy maqsadi – ta'lim jarayonini ilg'or metodlar va yondashuvlar bilan boyitish va bolalarning o'zini ifoda etishiga yordam berishdir.

Rahbarlik va liderlik fazilatlarini rivojlantirish uchun rahbarlar quyidagi amallarni bajarishlari zarur:

- Kasbiy o'sish va malaka oshirish: Rahbarlar pedagogik yangiliklarni va tizimdagи o'zgarishlarni doimiy ravishda o'rganib borishlari kerak. Yangi metodlar va texnologiyalarni qo'llash, o'z tajribasini oshirish bu yo'nalishda muhimdir.
- Mentorlik va treninglar: Tarbiyachilar va tarbiyachilarni muntazam ravishda treninglar va seminarlar orqali rivojlantirish, ularni yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish rahbarning vazifalaridan biridir.
- Jamoaviy ish va hamkorlik: Tarbiyachilar va pedagogik xodimlar o'rtasida yaxshi hamkorlikni yo'lga qo'yish, jamoaviy ishni rivojlantirish rahbarning asosiy vazifalaridan biridir. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Quyidagi jadvalda maktabgacha ta'limda rahbar bo'lism uchun zarur bo'lgan fazilatlar va ularning qisqacha tavsifi keltirilgan.

FAZILATLAR	TAVSIF
Ochiq fikr va istiqbolni belgilash	Maktabgacha ta'lim jarayonini rivojlantirish va keljakni ko'ra olish qobiliyati.
Maqsadga yo'naltirilganlik	Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va aniq maqsadlarni belgilash.
Qaror qabul qilish	Tarbiyachilarning ehtiyojlari va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga mos ravishda qarorlar qabul qilish.
Ijtimoiy ma'suliyat	Tarbiyachilarning ijtimoiy rivojlanishiga, axloqiy qadriyatlarni o'rgatishga qaratilgan rahbarlik.
Komanda bilan ishlash	Ta'lim jarayonida pedagogik jamoa bilan samarali hamkorlik va muvofiqlikni ta'minlash.
Muammolarni hal etish	Ta'lim jarayonidagi yuzaga kelgan muammolarni samarali hal qilish va ularni oldini olish.
Kommunikatsiya	Samarali muloqot vatarbiyachilar, ota-onalar, hamda boshqaruv tizimi bilan doimiy aloqani ta'minlash.
Motivatsiya	Tarbiyachilarning faolligini oshirish va ularga ilhom berish.

Innovatsion yondashuv	Maktabgacha ta'limda yangi metodlar va texnologiyalarni tatbiq etishga tayyorlik.
-----------------------	---

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinmi, maktabgacha ta'lim tashkilotida rahbarlik va liderlik fazilatlari bolalarning ta'lim va tarbiyasiga, tarbiyachilarining ishslash sifatiga va muassasaning umumiyligi rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Samarali rahbarlar nafaqat pedagogik jarayonlarni boshqarish, balki o'z jamoalarini rag'batlantirish, ularni ilg'or metodlarga tayyorlash va bolalar uchun qulay sharoitlarni yaratishda katta rol o'yndaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlik va liderlik fazilatlarini rivojlantirish – tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shartdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rafiqovna I. M. va boshqalar. *Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish* // Ta'limning zamонавиј transformatsiyasi. – 2024. – T. 4. – № 2. – S. 121-125.
2. Shohbozbek E. *Renewal of the social sphere and stable society system in the process of reforms* // American Journal of Social Sciences and Humanity Research. – 2024. – T. 4. – № 09. – S. 16-20.
3. Shuxratovna A. N. va boshqalar. *Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning zamонавиј asoslari* // Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 47. – S. 1-4.
4. Xalikova U. M. *Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish metodikasi* // O'quv qo'llanma. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi "Fan va ta'lim" nashriyoti. – 2022. – T. 216.
5. Ergashbayev S. *Yoshlarning ma'naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim jarayonlarining o'rni (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida)* // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. – T. 2. – № 2. – S. 3-9.